



Translator's personality and competence

Khusan TUGALOV¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5
October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25

November 2025

Keywords:

translation,
translator's personality,
translator's competences,
cultural mediation,
intercultural
communication,
linguistic competence,
cultural competence,
communicative competence,
ethical competence, meaning
reconstruction,
translator's interpretation,
creative text reproduction.

ABSTRACT

This article analyzes the role of the translator's personality and competence in the translation process. Translation involves not only language transfer but also the reconstruction of culture and thought. Therefore, the translator's worldview and creativity directly influence translation quality. The paper highlights linguistic, cultural, communicative, and ethical competences of the translator, as well as their interrelation. It also discusses the translator's role as a cultural mediator and the importance of the human factor in translation.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp82-87>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tarjimon shaxsi va kompetensiyasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

tarjima,
tarjimon shaxsi,
tarjimon kompetensiyalari,
madaniyatlararo
vositachilik,
madaniyatlararo
kommunikatsiya,
lingvistik kompetensiya,
madaniy kompetensiya,
kommunikativ
kompetensiya,

Ushbu maqolada tarjimon shaxsi va kompetensiyasining tarjima jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Tarjima – bu nafaqat tilni, balki madaniyat va tafakkurni ham qayta yaratish jarayonidir. Shu sababli tarjimonning shaxsi, dunyoqarashi va ijodiy yondashuvi tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada tarjimonning lingvistik, madaniy, kommunikativ va etik kompetensiyalari hamda ularning o'zaro bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek tarjimonning madaniyatlararo vositachi sifatidagi roli va tarjima jarayonidagi inson omilining ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

¹ Senior Lecturer, Department of Chinese Philology, Faculty of Oriental Languages, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: Husanjon90@gmail.com

etik kompetensiya,
ma'noni qayta qurish,
tarjimon talqini,
matnni ijodiy qayta yaratish.

Личность и компетенция переводчика

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

перевод,
личность переводчика,
компетенции
переводчика,
культурное
посредничество,
межкультурная
коммуникация,
лингвистическая
компетенция,
культурная компетенция,
коммуникативная
компетенция,
этическая компетенция,
реконструкция смысла,
переводческая
интерпретация,
творческая переработка
текста.

В данной статье анализируется роль личности и компетенции переводчика в процессе перевода. Перевод представляет собой процесс воссоздания не только языка, но и культуры, и образа мышления. Поэтому личность, мировоззрение и творческий подход переводчика непосредственно влияют на качество перевода. В статье освещаются лингвистические, культурные, коммуникативные и этические компетенции переводчика, а также их взаимосвязь. Кроме того, рассматривается роль переводчика как межкультурного посредника и значимость человеческого фактора в процессе перевода.

Tarjima bu tilni qayta qurish jarayoni, ya'ni tarjimon, matn va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirga asoslangan faoliyatdir. Tarjima jarayoni nafaqat so'zlarni bir tildan boshqasiga o'tkazish, balki til, madaniyat va tafakkurni qayta qurish san'atidir. Shu bois, "tarjima bu tilni qayta qurish jarayoni" degan fikr tarjima nazariyasining eng muhim konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Har qanday tarjimada muallif, matn, tarjimon va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, ushbu jarayon natijasida asar yangi tilda, yangi madaniy kontekstda qayta tug'iladi.

Til bu faqat grammatik vositalar majmui emas, balki xalqning madaniy xotirasi, tafakkuri va dunyoqarashining ifodasidir. Shu sababli tarjimon so'zma-so'z tarjima qilmaydi, balki ma'no, uslub va madaniyat qatlamlarini yangi tilda qayta tiklaydi. U asl matnni o'z tilining tuzilishi, madaniy qadriyatlari va estetik mezonlariga mos holda qayta ifoda etadi. Bu holat tarjimini "qayta qurish" deb atashga asos beradi, chunki tarjimon tilda mavjud vositalardan foydalanib, boshqa madaniyatga mansub ma'noni yangi shaklda yaratadi.

Tarjima jarayonida tarjimon passiv vositachi emas, balki faol subyekt ijodkor shaxsdir. U muallif g'oyalarini o'z tafakkuri orqali qayta talqin qiladi va o'quvchiga yangi madaniy kontekstda yetkazadi. Tarjimon shu tariqa muallif bilan o'quvchi o'rtasida madaniy ko'prik vazifasini bajaradi. Uning shaxsiy dunyoqarashi, estetik didi, bilim darajasi va ijtimoiy tajribasi tarjima sifati va xarakteriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tarjimonni "tilni qayta quruvchi" yoki "ma'noni qayta yaratuvchi" ijodkor sifatida baholash to'g'ri bo'ladi.

Tarjima, shuningdek jamiyat bilan uzviy bog'liq hodisadir. Har bir asar muayyan tarixiy va madaniy sharoitda yaratilgan bo'lsa, tarjima ham o'sha asarning boshqa jamiyatda yangicha hayot topishiga xizmat qiladi. Tarjima orqali madaniyatlar o'zaro ta'sirga kirishadi, g'oyalar, obrazlar va estetik qadriyatlar almashadi. Tarjimon shu jarayonda nafaqat til vositalarini, balki ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarni ham qayta shakllantiradi.

Masalan, G'arb adabiyotining o'zbek tiliga tarjimalari o'zbek adabiy tafakkurini boyitgan bo'lsa, Sharq adabiyotining G'arb tillariga tarjimasi G'arb o'quvchilarining Sharq madaniyatini anglashiga sabab bo'lgan. Bu esa tarjimaning til doirasidan chiqib, madaniyatlararo muloqot vositasiga aylanganini ko'rsatadi.

Tarjima bu tilni, madaniyatni va ma'noni qayta qurish faoliyatidir. Unda tarjimon tilning grammatik chegaralaridan tashqariga chiqib, muallif g'oyasini yangi madaniy muhitda jonlantiradi. Shu bois, tarjimon nafaqat matnni o'tkazuvchi, balki uni qayta yaratib, yangi jamiyatga moslashtiruvchi ijodkor sifatida qaraladi. Tarjima bu tildagi fikrni yangi hayotga qayta tug'dirish, demakdir.

Dryden bir paytlar tarjimonlarni "zanjirda raqsga tushayotgan raqqosalar"ga qiyoslagan bu ta'rif tarjimon qanchalik cheklovlar ichida ishlamasin, baribir o'z san'atini nafis tarzda namoyon etishini anglatadi.

Tarjima jarayonida savol tug'iladi: tarjimon qanday rollarni bajarishi kerak? U qanday shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lishi lozim? Ushbu masalalarni aniqlashtirish tarjima faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, natijada tarjima asliyatdagi ma'lumotni yanada to'liq va aniq yetkazish imkonini beradi.

Adabiy asarning mazmunini bir tildan boshqasiga o'tkazish – bu ko'p qatlamli, ko'p qirrali jarayon, soddalashgan, bir yo'nalishli jarayon emas. Bu jarayon g'oyaviy, kontekstual, shakliy, uslubiy va madaniy ma'nolarni o'z ichiga oladi. Tarjima nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, u faqat lingvistik almashtirish emas, balki madaniyatlararo faoliyat hamdir.

Tarjima jarayonida tarjimon nafaqat o'quvchi yoki muallifning nuqtai nazaridan ish yuritadi, balki bu ikki qarashni uyg'unlashtirib ijod qiladi. Muallif fikriga ko'ra, tarjimonning shaxsi ko'p qirrali bo'lishi zarur, ya'ni u bir vaqtning o'zida o'quvchi, muallif, ijodkor va tadqiqotchidir. Ushbu maqola adabiy tarjima kontekstida tarjimon shaxsi masalasini aynan shu jihatdan tahlil qiladi.

Tarjimon o'quvchi siatida. Avvalo, tarjimon asliyat asarning o'quvchisidir, ammo uning o'quvchilik maqomi oddiy o'quvchidan farq qiladi. Tarjimonning shaxsiy madaniy saviyasi, ilmiy tayyorgarligi, estetik didi va boshqa fazilatlari uning madaniy tafakkuriga va hayotiy tanlovlariga bevosita ta'sir qiladi.

Zamonaviy estetika nazariyotchisi Hans Robert Yaussning ta'kidlashicha, asar o'qilmaguncha u hayot va ma'noga ega emas. Faqat o'qish va talqin qilish jarayonida asarga bitmas-tuganmas ma'no bag'ishlanadi. Tarjima faoliyati esa muallif, asl matn, tarjimon, tarjima nusxasi va o'quvchini bog'lab turuvchi qizil chiziq singari vosita bo'lib xizmat qiladi.

Asl matn nuqtai nazaridan olganda, tarjimon ham o'quvchi, biroq maxsus o'quvchidir. Oddiy o'quvchi asarni umumiy tushunish bilan cheklanadi, tarjimon esa uni chuqur, to'liq va aniq anglashga harakat qiladi. Oddiy o'quvchi asarni subyektiv tarzda talqin qilishi, ba'zan o'zicha qo'shimcha yoki qisqartirish kiritishi mumkin. Tarjimon esa asar mazmunini to'liq anglash mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan shaxs sifatida, chuqur tahlil va tushunishga majburdir.

Lu Szyun “Qizil saroydagi tush” asariga nisbatan shunday degan edi: “Asarning asosiy mavzusi o’quvchining fikriga qarab, turlicha talqin etiladi. Kimdir unda o’zgarishni, kimdir ifloslikni, kimdir muhabbatni, kimdir isyonni, boshqasi esa saroy sirlari haqida hikoya ko’radi.”

Bu fikr tarjimonning o’ziga xos o’quvchi sifatidagi maqomini yaqqol ko’rsatadi. Mashhur Xitoy tarjimoni Fu Ley shunday degan: “Tarjima tilga yaqin jarayon bo’lsa-da, u san’at bilan sug’orilgan bo’lishi kerak. Nozik yurak, samimiy hamdardlik, to’g’ri idrok, hayotiy tajriba va sog’lom aql bo’lmasa, asarning asl mohiyatini anglash mushkul, balki imkonsiz.”

Shunday qilib, tarjimon nafaqat ikki tilda, balki ikki madaniyatda ham chuqur bilimga ega bo’lishi kerak. U asarning yaratilgan davridagi ijtimoiy, tarixiy va madaniy sharoitlarni, shuningdek, muallifning dunyoqarashi va uslubini chuqur o’rganishi lozim.

Tarjimon bilan oddiy o’quvchi o’rtasidagi yana bir farq ularning psixologik yondashuvidadir. Oddiy o’quvchi mazmundan bahramand bo’lish uchun o’qiydi, tarjimon esa ijodiy qayta yaratish maqsadida o’qiydi. Shuning uchun tarjimon o’qish jarayonida matnni nafaqat tushunadi, balki uni tahlil qiladi, tahlil orqali esa asarning yashirin ma’nolarini ochib beradi. Bu turdagi o’qish adabiyotshunoslikda “talqin” deb ataladi va u oddiy o’qishdan ancha faol va ongli jarayondir.

Tarjimon muallif sifatida. Tarjimon nafaqat asliyatning o’quvchisi, balki tarjima matnining **muallifi** hamdir. Chunki tarjima bu asl asarning hayotini davom ettiruvchi yangi shakldir. Tarjima muallifi sifatida tarjimon, asl muallif kabi, material tanlash, syujet tuzish yoki hikoya tuzilishini rejalashtirish bilan shug’ullanmaydi. Biroq, u o’z tafakkuri va ifodasini **asl muallifning niyatiga to’liq mos holda** qurishi kerak. Shu bois tarjimon o’z fikrlarini bir chetga surib, muallif irodasiga bo’ysunadi va **muallifning boshqa tildagi ovozig aylanadi**.

Adabiy tarjimon bo’lish uchun shunchaki ikki yoki undan ortiq tilni bilishning o’zi yetarli emas. Tarjimon muallif singari, **adabiy madaniyat, til sezgirligi, badiiy ifoda mahorati, teran kuzatuvchanlik va tasavvur kuchiga** ega bo’lishi zarur. Shunda u asliyatni chuqur anglaydi, uning mohiyatini tutadi va shakl hamda mazmun uyg’unligidagi badiiy muhitni to’liq yetkaza oladi. Shu ma’noda tarjima jarayonida tarjimon asl muallif rolini o’z zimmasiga oladi va ma’lum ma’noda **“muallif shaxsiyatini qabul qiladi”**.

Liang Tsongdai shunday yozgan edi: “Asar tarjimon yuragida shunchalik chuqur aks sado beradiki, muallif va tarjimon tafakkuri o’rtasidagi uyg’unlik shu qadar mustahkam bo’ladiki, go’yo ular bitta ijodiy ruhga aylanadi. Shu paytda tarjimon asliyat muallifining ruhiy davomchisi, hatto uning “qayta tug’ilishi”day bo’lib qoladi. U o’zini butunlay asarga bag’ishlaydi va asarning badiiy go’zalligini yangi tilda jonlantiradi. Shu tariqa tarjima – asrlar va madaniyatlar chegarasidan oshib o’tgan ikki buyuk ruhning hamkorligi, adabiyot tarixidagi nodir mo’jiza bo’ladi”.

Mashhur adib va tarjimon **Lin Yutang** ingliz tilini mukammal bilgan, shu bilan birga xitoy tilining go’zalligini chuqur his qilgan ijodkor edi. U **“Sharq va G’arb madaniyatlarini yagona nuqtada birlashtirish”**, ularning o’zaro tushunishi va uyg’unlashuviga erishishni o’z oldiga maqsad qilgan U Shen Funing **“Suzuvchi hayotning olti qaydi”** asarini ingliz tiliga tarjima qilgan. Ushbu asar xitoycha turmush san’ati va madaniy ruhni o’zida mujassam etgani sababli, G’arb o’quvchilari tomonidan iliq kutib olingan va bir necha bor qayta nashr qilingan.

Bunday muvaffaqiyatli tarjima **mualliflik madaniy saviyasi, adabiy yozuv mahorati, hayotiy tajriba, san'at sezgirligi va estetik tasavvur** bo'lmasa, amalga oshmaydi.

Xitoy adabiyotining yirik vakili **Mao Dun** bu borada shunday degan edi: "Tarjima bu faqat lingvistik shaklni texnik o'zgartirish emas. U muallifning badiiy jarayonini til orqali chuqur anglashni talab qiladi. Tarjimon asarning mohiyatini o'z his-tuyg'ulari, fikrlari va hayotiy tajribasi orqali qayta his etib, unga mos adabiy til topishi lozim. Shundagina u asarning mazmuni va shaklini sadoqat bilan tiklay oladi. Bu jarayonda tarjimon va muallif bir butun bo'lib ketadi go'yo muallif o'z asarini boshqa tilda qayta yozgandek bo'ladi."

Demak, tarjimonning **muallif sifatidagi shaxsi** tarjima jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. U asarni shunchaki so'zma-so'z ko'chirmaydi, balki uni **boshqa madaniyatdagi o'quvchilar uchun qayta tug'diradi**. Shu bois, tarjimonni "muallifning ijodiy hamrohi" deb atash to'g'ri bo'ladi.

Tarjimon ijodkor sifatida. Adabiy tarjima o'ziga xos hodisadir. Adabiy tilda so'z, ibora va nutq darajalarida yuzaga keladigan **ifoda xilma-xilligi** ko'pincha tilning o'z chegaralaridan ham chiqib ketadi. Shu jihatdan, tarjimonning ijodiy salohiyati **asl muallifnikidan kam emas**, hatto ba'zi hollarda undan ham ustun bo'lishi mumkin.

Muallifning ijodi bu uning o'z dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, yozish uslubi va tanlagan materiali bilan cheklangan bo'ladi.

Tarjimonning ijodi esa turli davrlar va mualliflarning asarlarini qayta yaratish imkoniga ega bo'lgan, **madaniyatlara va davrlararo ijodiy faoliyat**dir.

Tarjimon turli davrlar, janrlar, uslublar va g'oyalarga mansub asarlarni tarjima qiladi. U nafaqat **matn tuzilmasi, konteksti va badiiy ruhi**, balki **o'z davrining madaniy sharoiti, milliy qadriyatlari va o'quvchi ehtiyojlarini** ham hisobga oladi. Shu sababli, tarjima jarayonida u asl asarning **g'oyasi, uslubi, tarixiy konteksti, muallif dunyoqarashi va badiiy texnikasini** chuqur o'rganib, ularni yangi madaniyatga mos tarzda qayta ifoda etadi.

Adabiy tarjima **bir tomondan asliyat bilan cheklangan**, lekin **shu cheklov ichida ijodkorlik imkoniyatlariga** ega jarayondir. Tarjimaning mohiyati **til to'siqlaridan chiqib**, asarning **mazmuni va madaniy ruhini** uzatishdir. Faqatgina shunda, tarjimon asl muallifning ijodiy tafakkuriga imkon qadar yaqinlashib, o'z milliy madaniy konteksti asosida **asar mohiyatini qayta yaratganida**, haqiqiy ma'noda **muvaffaqiyatli tarjima** yuzaga keladi. Bunday tarjima bir vaqtning o'zida ham **asl muallif bilan uyg'un**, ham **maqsadli o'quvchilar tomonidan qabul qilinadigan** darajada bo'ladi.

Adabiy tarjima bu **san'atning qayta yaratilishidir**. Tarjima asliyatning nusxasi emas, balki **mustaqil badiiy qiymatga** ega bo'lgan yangi asardir. U tarjimonning **shaxsiy estetik didi, tarixiy tafakkuri va sub'ektiv his-tuyg'ularini** o'zida mujassam etadi. Shu ma'noda, tarjima bu **san'atning qayta yaratilgan shakli**, ya'ni ijodning yangi bosqichidir.

Albatta tarjimonning ijodiy faoliyati **chegasiz erkinlik** emas. Har qanday ijodkorlik **asliyatga sadoqat** bilan bog'liq bo'lishi shart. Aks holda bu ijod emas, balki **asl asarni buzish** bo'ladi. To'g'ri yo'naltirilgan ijodkorlik tarjimonning **subyektiv faoliyatidan** kelib chiqadi.

Tarjimon butun asarning ruhini o'z yuragiga singdirishi, muallif bilan fikriy yaqinlik hosil qilishi, lekin shu bilan birga **maqsadli til o'quvchilarining** madaniy orqa plani va qabul darajasini ham inobatga olishi zarur. Shu tarzda u asarni **ijodiy qayta talqin etadi** bu jarayon "tarjima orqali yaratuvchanlik" deb ataladi.

Shunday qilib, tarjimonning ijodkorlik jihati bu **madaniyatlar o'rtasida ko'prik qurish san'atidir**. U so'zlar orqali nafaqat mazmunni, balki **ruh, uslub va estetikani** ham o'tkazadi.

Tarjimon tadqiqotchi sifatida. Yuqoridagi uchta rolga qo'shimcha ravishda, tarjimonning **tadqiqotchi sifatidagi roli** ham nihoyatda muhimdir. Adabiy tarjima bu **adabiy tadqiqot**dan ajralmas jarayon bo'lib, tarjima sifati ko'p jihatdan tarjimonning **ilmiy tayyorgarligiga** bog'liq.

Hatto tarjimonning til bilimi yuqori bo'lsa ham, agar u muallif va uning asarlarini o'rganmasa, **asar mohiyatini to'liq tushuna olmaydi**. Shu sababli, tarjimon **asar mavzusi, materiali, tarixiy konteksti** va madaniy tafsilotlarini chuqur tahlil qilishi kerak.

Tarjimonning asarni anglash darajasi ikki asosiy jihatni o'z ichiga oladi:

Til konnotatsiyasini tushunish, ya'ni asarda ishlatilgan so'z va iboralarning madaniy-mazmuniy qatlamlarini anglash.

Matndan tashqari bilimlarga ega bo'lish, asarda ifodalangan davr, tarixiy voqealar, madaniyat va falsafiy qarashlarni bilish.

Ko'pincha tarjimon tarjimaga kirishishdan oldin muallifning **boshqa asarlarini o'qib chiqadi**, ularning **uslubini, mavzularini** o'rganadi, shuningdek, **muallif biografiyasini** tahlil qiladi. Chunki adabiy asarlar ko'plab sohalar bilan kesishadi madaniyat, jamiyat, falsafa, estetika, tarix va boshqalar.

Shu sababli tajribali tarjimon tarix, geografiya, jamiyatshunoslik, urf-odat va marosimlar, musiqa va tasviriy san'at, madaniyat tarixi borasida keng qamrovli bilimga ega bo'lishi zarur.

Agar tarjimon shu sohalarda yetarlicha tayyorgarlikka ega bo'lmasa, u asarni chuqur tushuna olmaydi va tarjima sifati past bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda tarjimonning **o'quvchi, muallif, ijodkor va tadqiqotchi** sifatidagi to'rt xil roli bir-biridan ajralmasdir. Ularning har biri tarjima jarayonida o'zaro uyg'unlashgan holda ishlaydi. Ushbu rollarni alohida, mustaqil sifatida ko'rish xatodir, chunki ular **bir butunlikda** tarjimon shaxsini shakllantiradi.

Tarjimon ushbu to'rt rolning har birini ongli ravishda his etib ishlamas, tarjima muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin. Shu sababli, tarjimon o'zining **ko'p qirrali shaxsiyatini** doimo tan olishi va rivojlantirishi zarur. Faqat shundagina u **yuqori sifatli, badiiy jihatdan yetuk tarjimalar** yaratishga erisha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Venuti, L. *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. – London: Routledge, 1995.
2. Hatim, B., Mason, I. *The Translator as Communicator*. – London: Routledge, 1997.
3. Bassnett, S. *Translation Studies*. – London and New York: Routledge, 2002.
4. 胡庚申：《翻译理论与跨文化交际》，北京：外语教学与研究出版社，2010年。
5. 钱歌川：《翻译理论基础》，上海：上海译文出版社，2006年。
6. 刘宓庆：《翻译美学》，北京：中国对外翻译出版公司，2008年。
7. 谢天振：《比较文学与翻译研究》，南京：译林出版社，2011年。